

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**TALABALARDA METODOLOGIK MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Ishonxo'jayev Nu'monxo'ja Iqbolxo'ja o'g'li

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tizimli yondashuv va pedagogik mulohaza madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Unda metodologik madaniyatning mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi roli, hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va samarali shakllantirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *metodologik madaniyat, talaba, innovatsion ta'lim, tanqidiy fikrlash, refleksiya, tizimli yondashuv, ilmiy izlanish, muammoli o'qitish, kompetensiya*

Аннотация: *В данной статье акцентируется внимание на формировании у студентов системного подхода и культуры педагогической рефлексии в процессе современного обучения. В ней анализируется содержание методической культуры, ее роль в образовательном процессе, а также педагогические условия ее развития. При этом выделены пути организации и эффективного формирования образовательного процесса на основе инновационных технологий.*

Ключевые слова: *методическая культура, студент, инновационное образование, критическое мышление, рефлексия, системный подход, исследование, проблемно-ориентированное обучение, компетентность*

Annotation: *This article focuses on the formation of research thinking, a systematic approach and a culture of pedagogical reflection in the process of modern education. It analyzes the content of methodological culture, its role in the educational process, as well as the pedagogical conditions for its development. At the same time, the ways of organization and effective formation of the educational process based on innovative technologies are highlighted.*

Keywords: *methodological culture, student, innovative education, critical thinking, reflexion, systems approach, research, problem-based learning, competence*

KIRISH. XXI asrda ta'lim tizimining jadal rivojlanishi, bilimlar hajmining kengayishi va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarib borishi ta'lim jarayonlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni, metodologik jihatdan yangilashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik yondoshuvlar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon,

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

avvalo, talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy-nazariy asosda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bir qator hujjatlar, xususan, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"; 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur"; 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar, mazmunan talabalarning mustaqil fikrlashi, ilmiy-nazariy qarashlari va metodologik yondashuvlarini shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. So'nggi yillarda o'zbekistonlik bir qator pedagog va tadqiqotchilar tomonidan metodologik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim metodlari va shaxsiy rivojlanishga oid muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, M. Qodirova o'zining "Zamonaviy darsda ilmiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish" nomli maqolasida talabalarning mustaqil va tizimli yondasha olishi uchun ta'lim muhiti qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr bildiradi. Shuningdek, yoshlar kreativligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (E. Hamroyeva, 2024) ham shuni ko'rsatadiki, metodologik madaniyatni shakllantirishda ijodiy muhit, o'z fikrini erkin ifodalashga imkon beradigan o'quv yondashuvlari muhim rol o'ynaydi[2.68].

Bundan tashqari, D. Saidov tomonidan ishlab chiqilgan "Didaktik tizimlar va ularning metodologik asosi" nomli ishda o'quv jarayonining har bir bosqichi tahlil qilinib, unda talabalar faolligini oshirish orqali ularning metodologik tayyorgarligini kuchaytirish mumkinligi ta'kidlanadi[3.122].

Xorijiy tajriba ham shuni ko'rsatadiki, talabalarni faqat bilim oluvchilar sifatida emas, balki bilim yaratuvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllantirish – metodologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishidir. Masalan, amerikalik olim S. Grant shaxsiy tajriba, tahlil va refleksiya asosida o'qitish usullari orqali talabalarda ilmiy qarashlar va metodologik fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqotda talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirishga doir pedagogik shart-sharoitlar aniqlash, tahlil qilish va asoslash maqsad qilingan. Metodologik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ilmiy-analitik fikrlashni rivojlantirishga oid qarashlar asosida tahlillar amalga oshirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJA. Metodologik madaniyat zamonaviy pedagogikada talabaning fikrlash madaniyati, ilmiy-analitik yondashuvi va mustaqil qaror qabul qilish salohiyati bilan bog'liq asosiy tushuncha sifatida qaralmoqda. Bu tushuncha orqali talabaning bilimga bo'lgan munosabati, uni qanday tahlil qilishi, qanchalik chuqur o'zlashtirishi va o'z fikrini qanday asoslay olishi kabi muhim jihatlar nazarda tutiladi. Talabaning bilimni faqat yodlash emas, balki uni tanqidiy idrok etish, mavjud g'oyalarni

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

shubha ostiga olish, yangi fikrlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi — uning metodologik madaniyat darajasini belgilaydi.

Zamonaviy ta'lim mazmuni talabani murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa oladigan, mantiqiy va asosli qarorlar chiqarishga qodir mutaxassis sifatida shakllantirishni ko'zlaydi. Bu esa metodologik tafakkur va mustaqil fikrlash madaniyatini o'zlashtirishni talab etadi[4.56]. Shunday qilib, metodologik madaniyat – bu o'rganilgan bilimlarni chuqur tahlil qilish, ularni boshqa sohalar bilan bog'lash, yangi holatlarda qo'llash va xulosalar chiqarish qobiliyatining yig'indisidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi orqali o'zlarining metodologik savodxonligini shakllantiradilar. Bu jarayon davomida ularning o'ziga ishonchi ortadi, fikr yuritish doirasi kengayadi, ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Metodologik madaniyatning shakllanishi, shuningdek, ta'lim muhitida ilmiy-ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, erkin fikr almashinuvi asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni va pedagoglarning yuksak kasbiy-ma'naviy salohiyatiga ham bevosita bog'liqdir[3.55]. O'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki talabani fikrlashga undaydigan, unga savollar berish, izlanish va xulosa chiqarishga imkon beradigan shaxs sifatida qatnashmog'i lozim. Bu jarayonda ilmiy seminarlar, tadqiqot loyihalari, munozaralar, intellektual o'yinlar va tanlovlar metodologik madaniyatni shakllantirishda muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirish – bu faqat nazariy bilim berish emas, balki ular ongida ilmiy yondashuv, mustaqil tahlil qilish va yangilikka intilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan murakkab, ammo zarur pedagogik jarayondir. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni,
2. Hamroyeva E. Pedagogika. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2010, 241 bet.
3. Saidov. D. Pedagogik mahorat. – Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. 230 bet.
4. Omonov H.T., Xojayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Darslik. Toshkent: 2007-y. 195 bet.